

ZAMONAVIY METODIKADA KREATIVLIKNING AHAMIYATI

Muminova Dilnura Raxmatulla qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti,
Xorijiy filologiya fakulteti talabasi.

Ilmiy rahbar: **Tursunmuratova Dilnoza Turamuratovna**
Fransuz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'limda zamonaviy metodikani qo'llash, shu jumladan kreativlikni rivojlantirishning ahamiyati, yo'nalishlari hamda mohiyati muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Kreativlik, metodika, ta'lim, fan, tafakkur.

Аннотация. В данной статье рассматриваются важность, направления и сущность использования современных методов в образовании, в том числе в развитии творческих способностей.

Ключевые слова: Творчество, методология, образование, наука, мышление.

Abstract. This article discusses the importance, directions and essence of using modern methods in education, including the development of creativity.

Keywords: Creativity, methodology, education, science, thinking.

Inson yaralibdiki, taraqqiyot, rivojlanish davom etib kelmoqda. Ibtidoiy davrdan to fan-texnika taraqqiy etgan bugungi kunga qadar bo'lgan jarayonlar fikrimiz isboti.

Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlilikni belgilab beradi.

Har qanday mamlakatning qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatiga bog'liq. Istiqloq tufayli ma'naviy hayotimizda ulkan burilish sodir bo'ldi. Mustaqillik bizning milliy- madaniy qadriyatlarimizning naqadar boy va teran tafakkur uslubini shakllantirishga imkoniyat ochib berdi. Oqibatda milliy qadriyatlarimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda hamda ularni milliy iftixor ruhida tarbiyalashda qudratli tarbiyaviy negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

Odatda kreativlik bolalarda tez-tez ko'zga tashlanib turadi. Kreativ fikrlovchi bolalar ko'p bo'lsada, bu bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini belgilab bermaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirish uchun ularning mazkur xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlab turish zarur [2]:

- bolalarning ko'p savollar berishlarini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

- bolalarning mustaqilligini ragʻbatlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- bolalarning qiziqishlariga, iqtidorlariga eʼtibor qaratish.
- Quyidagilar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga toʻsqinlik qiladi:
- oʻzini tavakkaldan olib qochish;
- fikrlash va xatti-harakatlarda qoʻllikka yoʻl qoʻyish;
- shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- boshqalarga tobe boʻlish;
- har qanday holatda ham faqat yutuqni oʻylash.

Maʼlumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda roʻy berayotgan jarayonlarga oʻz taʼsirini oʻtkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-maʼnaviy yangilanishining muhim subʼekti boʻlgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim masalasi ahamiyatga ega.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotning yangi istiqbollari ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilgʻor yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi.

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng koʻlamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor surʼatda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yoʻlga qoʻyish taʼlim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Taʼlim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev taʼkidlaganidek: “Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar oʻz oldiga nafaqat koʻplab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga oʻtish vazifasini qoʻymoqda. Yaʼni, oʻz iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, oʻzlashtirish va ilgʻor texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bogʻliq”.

Hozirgi kunga kelib pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va dars jarayoniga tadbiiq etish, birinchidan, anʼanaviy oʻqitish, yaratish va amaliyotga tadbiiq etish, anʼanaviy oʻqitish tizimi yozma va ogʻzaki soʻzlarga tayanib ish koʻrish tufayli “axborotli oʻqitish” shaklida tavsiflanadi. Natijada oʻqituvchi faoliyati birgina oʻquv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, nufuzli bilim beruvchi manbaga aylanib borishi taʼkidlangan holda baholanmokda. “Insonning ijtimoiy mohiyatini jamiyat talabiga mos ravishda shakllantiruvchi soha xalq taʼlimi tizimi deb atalib, uni amalga oshiruvchi shaxs oʻituvchi yoki muallim deyiladi. Oʻqituvchi-muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azal-azaldan eʼtibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qoʻyiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan”.

“Pedagogning kreativ innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi [3]:

- yangilikni qoʻllashga tayyorgarligi;

- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi”.

Kreativlik potensialiga ega pedagog o`zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi [4]:

- ✓ bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- ✓ masalaning qo`yilishini tahlil qila olish;- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- ✓ masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo`llash;
- ✓ masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- ✓ qabul qilingan qarorning to`g`riligini asoslash va qayta tekshirish; - masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- ✓ masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashimiz mamlakatimizda tub o`zgarishlarni amalga oshirishimizga imkon beradi. Bugungi kunda barcha rivojlangan mamlakatlarning har bir sohasini kreativ fikrlovchi yoshlar boshqarmoqda. Shuning uchun O`zbekistonda ham kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash, ta`lim va tarbiya jarayoniga kreativlikni olib kirish muhim masalalardan biri bo`lib kelmoqda.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “TA`LIMDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.2018
2. Bekmuratova U. B. “Ta`limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil Otaboeva, M. P. Chet tilini o`qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi;
3. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. Scientific progress, 2(8), 911-913.
4. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.
5. TURSUNMURATOVA, Dilnoza. "BADIIY MATN TARJIMASIDA LISONIY VOSITALARNING O`RNI." News of UzMU journaTuramuratovna, Tursunmuratova Dilnoza.
6. "GEKTOR MALONING “SANS FAMILLE” ASARIDAGI BOSH QAHRAMONLAR KLASSIFIKATSIYASI." PEDAGOGS 48.1 (2023): 67-72. 1 1.1.1. 1 (2024): 300-303.
7. Turamuratovna, Tursunmuratova Dilnoza, and Akhmedova Gulnoza Khayotovna. "OLIY TA`LIMDA QOIDALI O`YINLARDAN TA`LIM VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISH." Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. Vol. 3. No. 2. 2024.
8. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
9. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.

10. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
11. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
12. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
13. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
14. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
15. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
16. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
18. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
19. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
20. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
21. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
22. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
23. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
24. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).